BUXORO VILOYATINING MARKAZIY KOLLEKTORDA TUBAN SUVO‘TLARINING TARQALISHI

Jo‘rayeva Maftuna Alijonovna
Buxoro davlat universiteti Biologiya
(fan yo‘nalishlari bo‘yicha) mutaxassiligining
2- bosqich magistranti

Annotasiya: Ushbu maqolada kollektorda uchraydigan suvo‘tlarining turlari va ularning tarqalishida ekologik omillarning roli hamda suvning minerallashuv darajasi mavsumiy o‘zgarib turishi bu esa suvo‘tlarining tarqalishiga tasiri borasida fikrlar qayd qilingan.

Kalit so‘zlar: Kollektor, algoflora, suvning tiniqligi, minerallashuv, diatom suvo‘tlari

Yer yuzida aholi sonining ortib borishi bilan turli xil tabiiy tizimlarga, birinchi navbatda, turli tipdagi suv havzalariga antropogen ta’sirlar ham oshib bordi. Bu esa atrof-muhitni fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlarining o‘zgarishiga va ekologik tizimlarning tabiiy holatini buzilishiga sabab bo‘ldi. Suv havzalarida uchraydigan ko‘plab organizmlarni yani o‘simlik va hayvonot dunyosining yashashi va ko‘payishiga ta’sir ko‘rsatdi. Ba’zi o‘simlik turlari ifloslangan suv havzalarida ham o‘sib rivojlanib ko‘paya oladi. Organic moddalarga boy bo‘lgan suvliklarda o‘sadigan o‘simlik turlari suvni mineral moddalardan tozalash xususiyatini ham namayon qiladi. Shu nuqtai nazardan bugungi kunda suv havzalarning florasini taqdiq qilish ularning ahamiyatini o‘rganib, istiqbolli turlarni ko‘paytirish mexanizmlarini ishlab chiqish ahamiyatga molik ishlar hisoblanadi.

Buxoro markaziy kollektori 1969-yil tashkil qilingan bo‘lib Buxoro viloyatining Romitan va Jondor tumanlaridan oqib o‘tadi va Zomonbobo ko‘liga olib borib kuyadi. Umumiy uzunligi 51 kmga teng. Suvning rangi tiniq bo‘lganligi tufayli bu kollektordagi suv o‘tlarining turlari boshqa tadqiqot olib borilgan kollektorlarga nisbatan ancha ko‘pligi bilan farqlanadi. Kollektorning boshlanish qismida suvning hajmi kam va tiniq bo‘lganligi sababli, u yerda suvo‘tlari va suvda o‘sadigan o‘simliklar ko‘p tarqalgan suvo‘tlarning o‘sishi, rivojlanishi va tarqalishida ekologik omillarning ham ta’siri katta. Kollektor suvlarida o‘sayotgan suvo‘tlarning tarqalishi va rivojlanishida tashqi muhitning barcha ekologik omillari yorug‘lik, suvning harorati, suvning tiniqligi, suv havzasining chuqurligi, suvning oqimini tezligi, suvda erigan organik va anorganik birikmalar, suvga tashlanadigan sanoat va maishiy xo‘jaliklarning chiqindilari, oqava suvlar ham ancha ta’sir qiladi. Ekologik omillardan quyosh nurining yorug‘ligi suvo‘tlarning rivojlanishidagi asosiy omillardan biri bo‘lib

hisoblanadi. Quyosh nurining energiyasi turli suv havzalariga birday yetib bormaydi, bunga sabab suv havzasining chuqurligi va tiniqligiga bog‘liq bo‘ladi. Quyosh nuri yorug‘ligining suv qatlamlariga qay darajada kirib borishi shu suvlarda rivojlanayotgan suvo‘tlarning tarqalishini belgilaydi. Suvning harorati suvo‘tlarining tarqalishi va rivojlanishiga, turlarining tarkibiga, ularni bir xilda bo‘lmasligiga tas’ir qiladigan asosiy omillardan biri bo‘lib hisoblanadi.

Buxoro viloyati Markaziy kolletorida ham suvo‘tlarining tarqalish yil davomida o‘zgarib turadi. Bining asosiy sabablarida biri yuqorida sanab o‘tilgan omillar hisoblanadi. Mavsum davomida kollektor suvida olingan namunalar tahlil qilib borilganda suvo‘tlarning bir necha bo‘limga ta’luqli turlari aniqlandi bunga ko‘ra:

Ko‘k-yashil suvo‘tlaridan *Oscillatoria limosa* Ag, *O.amphbia* Ag, *O.angusta* Koppe, *O.sancta* Gom, *Merismopedia glauca* Nag, *M.tenuissima* Lemm, *Microcystis muscicola* Elenk, *Anabaena bergii* Ostenf, *A.variabilis* Kutz, *Spirulina gomontiana* Geitl, *S. mojor* Kutz, *S. tenuissima* Kutz, *Phormidium ambiguum* Gom, *Ph.valderiae* Geitl, *Lyngbyna salina* Kutz, *L. limnetica* Lemm. Yashil suvo‘tlardan *Scenedesmus acuminatus* Chodat, *S.obliquus* Kutz, *S. quadrricauda* Breb, *S. acutiformis* Schroed, *Pediastrum borganum* Menegh, *Chlorella ellipsoidea* Geneck, *Chlorella ellipsoidea* Geneck, *Ch. vulgaris* Beyer, *Ankistrodesmus angustus* Bern, *A. acicularis* Korschik, *A. arcuatus* Korschik, *Ulothrix zonata* Kutz, *U.variabilis* Kutz, *Clodophora glomerata* Kutz, *Vaucheria geminate* D.C., *Closterium parvulum* Nag, *Cosmarium angulogum* Breb, *C. granatum* Breb, *Spiragira varianus* Czurd. Diatom suvo‘tlaridan *Diatoma elongatum* Ag, *D. anceps* Kirchn, *D. vulgare* Bory, *Melosera ambigua* O.Mull, *M.varians* Ag, *Cuclotella comta* Kutz, *C. operculuta* Kutz, *C. bodanica* Eulenst, *Synedra acus* Kutz, *S.capitata* Her, *S.tabulata* Kutz, *Navicula cari* Her, *N.cincta* Kutz, *Cymbella laevis* Nag, *C. turgida* Cl, *Mastogloia baltica* Grun, *M. elleptica* Cl, *M. smithii* Thw, *Cyrosigma spenceri* Cl Evglena suvo‘tlaridan *Euglena variabilis* Klebs, *E.acus* Her*Phacus alatus* Klebs, *Ph. caudatus* Hubner kabi turlar keng tarqalganligi aniqlandi.

Kollektorda tarqalgan suv o‘tlarning tahlili bilan bir qatorda suvning minerallashuv darajasi ham aniqlandi. Bunga ko‘ra minerallashuv darajasi mavsumiy xarakterga ega bo‘lib, o‘rtacha 4,5-5,0 g/l tashkil qilishi va bevosita suvo‘tlarning uchrash indekisiga ham tasir ko‘rsatishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Anisimova O. V., Gololobova M. A. Kratkiy opredelitel rodov vodorosley. M., 2006. — 159 s.

2. Алимжанова Х, Ташпулатов Й, Ражабова М. Летний фитопланктон bacillariophyta и xanthophyta акдарьинского водохранилища среднего течения реки зарафшан // O‘Zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari, 2019, [3/2]

3. Buriev, S.B. and Kobilov, A.M. (2019) The Region’s Aquatic Vegetation of Lake Kara-Kira Bukhara. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 9, 5-11. https://doi.org/10.5958/2249-7137.2019.00072.7

4. Muxtorovich, Q. A.., & Alijonovna, J. M.. (2022). Buxoro Shahar Kunju Qal’a Kollektoridagi Tuban Suv O‘tlar. "ONLINE - CONFERENCES&Quot; PLATFORM, 60–61. Retrieved from http://papers.online-conferences.com/index.php/titfl/article/view/1015

5. Amonovich, S. and Muxtorovich, Q. (2022) High Vegetation of Lake Ayakagitma in Bukhara Region and Their Distribution. American Journal of Plant Sciences, **13**, 1373-1380. doi: 10.4236/ajps.2022.1311093.

6. Буриев, С. Б., & Кобилов, А. М. (2019). Повышение рыбопродуктивности за счет водных растениями в озере Кара-Кыр. Вестник Хорезмской Академии Маъмуна.-Хорезм. Специальный, (2019), 12-17.

7. Давронбек Саминжонов, Муаттархон Юлдашова. Куз мавсумида катта фарғона канали альгофлорасининг таксономик ва экологик тахлили // O‘zbekiston Milliy Universiteti Xabarlari 2022, [3/1/1]